



## SALAF IJODKORLARINING JAHONSHUMUL MEROSI ASOSIDAGI PEDAGOGIK QARASHLARI

Kalandarova Mavluda Amanbayevna

(UrDU mustaqil tadqiqotchisi)

**Резюме:** Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiy qarashlarida ta'lim va tarbiyaga oid masalalariga bo'lgan e'tibor, komillikka xos insoniy fazilatlar aks etgan.

**Резюме:** В данной статье отражены взгляды Мухаммада Резы Огахи на вопросы образования и воспитания, человеческие качества, свойственные совершенству.

**Summary:** In this article, Muhammad Reza Ogahi's views on the issues of education and upbringing, human qualities characteristic of perfection are reflected.

**Tayanch soʻzlar:** ta'lim, tarbiya, oʻzlikni anglash, maʼrifatparvarlik, maʼnaviy-axloqiy qarashlar, maʼnaviy meros, vatanparvarlik, iymon, eʼtiqod.

**Ключевые слова:** образование, воспитание, самосознание, просвещение, духовно-нравственные взгляды, духовное наследие, патриотизм, вера, убеждения.

**Key words:** education, training, self-awareness, enlightenment, spiritual and moral views, spiritual heritage, patriotism, faith, belief.

Dunyo miqyosida bugungi kunda globallashuv jarayonlari rivojlanishida ayrim xalqlar va umuman insoniyat madaniyati rivojlanishidagi ijobiy jarayonlar bilan bir qatorda turli darajadagi murakkab ijtimoiy-siyosiy harakatlar va maʼnaviy-axloqiy qarama-qarshiliklarning kuchayishiga guvoh bo'lmoqdamiz. Ayniqsa, insoniyat jamiyatini tashvishga solayotgan muammo shundan iboratki, o'z maqsadlariga erishish uchun olib borilayotgan bugungi kurashda xalqaro huquqqa zid bo'lgan usul va vositalardan tez-tez foydalanish holatlari kuzatilmoqda.

Shubhasiz, globallashuv jarayoni xalqning pedagogik tafakkuri va buyuk mutafakkirlarning pedagogik g'oyalarini o'rganish va tahlil qilish, bir tomondan, yosh avlodni axloqiy tarbiyalash va ma'naviy yuksaltirishda milliy xususiyatlarni hisobga olishga, ikkinchi tomondan, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishni ta'minlashga imkon beradi.

Shu o'rinda, Ogahiy qoldirgan buyuk meros bugungi kundagi oliy maqsadimiz bo'lgan yoshlarimizni komillik, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash qolaversa jamiyatimizda ma'naviy-axloqiy muhitini shakllantirishdagi yuksak ahamiyatini e'tirof etar ekanmiz, bu merosni har tomonlama tadqiq etish va o'rganish tobora dolzarb ahamiyat kasb etaveradi.

Xiva xonligi davrida muarriflar tomonidan shakllantirilgan adabiy muhit doirasidagi tarjimonlik maktabi solnomalardagi badiiy-falsafiy, ta'limiy-axloqiy jihatdan o'ta yuksak saviyada bo'lishini ta'minlagan omillardan biridir. Quyida bu fikrimizni Husayn Voiz Koshifiy qalamiga mansub "Axloqi muhsiniy" va uning Xiva xonligi qo'ng'irotlar sulolasi solnomanavislari axloqiy qarashlaridagi o'rni misoli bayon qilamiz: Dunyoning qaysidir mintaqasida, qaysidir tillarda shunday asarlar yaratiladiki, ular aslida butun insoniyatga



barobar xizmat qiladigan, mohiyatan barcha millat va elatlar, har qanday til egalariga teng qiymatga ega tafakkur durdonalaridir. Shukurki, “Qutadgʻu bilig”, “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub” kabi bunday asarlar bizning ona tilimizda ham yaratilgan. Nazarda tutilayotgan maqomdagi asarlardan biri Husayn Voiz Koshifiy qalamiga mansub “Axloqu-l-muhsiniy” (“Axloqi muhsiniy”)dir.

Muhammad Rizo Ogahiyning mazkur asarni tarjima qilishi haqli ravishda oʻzbek maʼnaviy hayotida muhim voqea boʻldi. Bunday deyishimizning sababi xalqimizning ziyoli qatlami yigirmanchi asrning boshlariga qadar fors tilidan yaxshigina xabardor boʻlishiga qaramay, barcha ham bu tildagi asarlarni bemalol oʻqiy olar edi, deya olmaymiz. Bundan tashqari, mazkur asarning ayrim toshbosma nashrlarida satrlar oralab, ayrim hollarda hoshiyada koʻpgina soʻzlarga peshma-pesh izohlar berilib borilganki, keyingi davrlarda uning tili forsiyazonlarning oʻzlari uchun ham oson anglanmaganini koʻrsatadi. Ogahiy qarashlari xalqimiz axloqiy dunyoqarashini kengayishiga, taʼlim-tarbiya sifatiga alohida hissa qoʻshgan va qoʻshib kelmoqda. N.Komilovning “Ogahiy mahorat bilan tarjima etgan asarlar oʻzbek adabiyoti tarixining muayyan bir boʻlagini tashkil etadi, uni oʻrganmay chetlab oʻtish esa bu ulkan adibning ijodiga yetarli eʼtibor bermaslik, uni yarim-yorti qilib, chala tasavvur etish yoki adabiyot tarixining salmoqdor bir qismini tashlab ketish demakdir” – degan haq fikrlari soha vakillarini bugun ham oʻylantirish kerak.

Axloqiy-pandnoma asar yaratish ham, tarjima qilish ham hamisha oson boʻlmagan. Birinchidan, inson oʻzi amal qilmagan ishga boshqa birovni undashi mantiqsiz. Shuning uchun ham yuksak axloqli kishigina barkamol axloqiy asar yarata oladi. Ikkinchidan, kimgadir qaysi shaklda boʻlsin axloq-odobdan gap ochish oson emas, ayniqsa, Saʼdiy, Navoiy, Koshifiy, Ogahiy maqomida turib hukmdorlarga pand-nasihat qilish oson kechmagan. Bunday vaʼzlarni xosu omma nazdida maʼqul qilish hamisha qiyin boʻlgan. Shuning uchun ularni matlub shaklda bayon qilish ijodkordan oʻzigacha bir ijodkorlik talab qilishi ayon. Shunday kelib chiqib, asrlar davomida matlub boʻlib kelayotgan “Axloqu-l-muhsiniy” kabi asarni oʻz tilida oʻz darajasida tarjima qilish mashaqqatini tasavvur qilaylik.

Ogahiy hazratlari, birinchi navbatda, oʻz axloqiy komilligi bilan, asliyatdagi va boshqa tarjima asarlari bilan ana shunday asarni oʻgirishga haqdor inson edi. Asar tarjimasida Ogahiy mahoratini tasavvur qilishimiz uchun bir necha misollarga murojaat bilan cheklanamiz.

Asardagi qitʼalardan birida aytiladi:

Suhbati mufsidonu badfeʼlon

Mardumi nekro taboh kunad.

Harki, bo deg hamnishin gardad

Jomai xeshro siyoh kunad.

Ogahiy tarjimasida

Yaxshi xoʻyin buzgʻusidur har kishi,

Boʻlsa badkirdorlargʻa hamnishin.

Qilgʻusi har odamning egnin qaro,

Gar yovuq tutsa qazon birla oʻzin.



Ushbu parcha orqali bir qarashda o'ta sodda, lekin o'lmas o'gitni o'girishta Ogahiy ona tili imkoniyatlaridan o'ta unumli foydalangani ko'rib turibmiz.

Quyidagi fard tarjimasida Ogahiy asliyatdagi arabcha va forscha so'zlarni saqlab qolishi, birinchi navbatda, asliy matndagi badiiy san'atlarni saqlab qolishga intilish bo'lsa, ikkinchidan, bu ifodalar eski o'zbek tili uchun odatiy muomaladagi birliklar bo'lganidir:

Az moh to ba mohiy v-z arsh to ba farsh  
Har zarrae az u shuda mustag'raqi ni'am.

Ogahiyda:

Mohdin mohiyg'a tegru Arshdin to farshg'a,  
Jumlai zarrot aning ne'matlarig'a g'arq erur.

Shuningdek, asardagi:

Na ba da'viyiyist vaduru qiymati mard,  
Qiymati mard sabr donad kard.

bayti Ogahiy tarjimasida:

Da'voi lofdin ermasdur eranlar qadri,  
Qadri qiymatlik erur ul kishikim bor sabri

shaklida beriladiki, bunda asliy matndagi ma'no ham, shakl ham, ifoda uslubi ham mukammal bir tarzda saqlab qolinishi bilan birgalikda Ogahiy Navoiy hazratlari istaganidek forsiyning imkoniyatlari ona tilimizda ham borligini ko'rsatib beradi.

Ushbu asar tarjimasida muvaffaqiyatlaridan biri Ogahiy ham asar muallifi kabi kuchli ilmiy salohiyatga egaligi, ularning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarida mushtaraklik mavjudligidir. Aslida bunday mutaffakirlar qaysi asrda yashab, qaysi saltanat fuqarosi bo'lishiga qaramay, ularni umuminsoniy va umumislomiy g'oyalar birlashtirib, ularning nomi, yaratgan asarlarini davriy va g'oyaviy mahdudliklar changalidan omon olib kelmoqda. Masalan, axloqiy masalalarning biri tama masalasida asarda o'qiyimiz: "Qanoat – tunganmas ganjdur, tama' – bedavo ranjdur.

Bayt:

Mardi qone' buzurgvor bo'lur,  
Tome', albatta, xoru zor bo'lur".

Bu so'zlar Abdurahmon Jomiyda:

Tama' az xalq gadoiy boshad,  
Gar hama Hotami Toiy boshad, –

"Agar hamma Hotami Toiy bo'lsa ham, odamlardan biror nima tama' qilish gadollikdir"  
– tarzida berilsa, Shayx Sa'diy bu borada

Oz biguzoru podshohiy kun,  
Gardani betama' baland boshad,

ya'ni "Ochko'zlikni qo'y-u podshohlik qil, tamasiz qad doim baland bo'ladi" –deganlar. Xuddi shu g'oyani Imom G'azzoliy "Kimyoi saodat"da "Tama' hirs tig'idir va xorlik tama'ning oqibati", – degan shaklda ifodalaydilar .

Payg'ambarimiz Muhammad sallohu alayhi vassalamning "Azza man qana" – "Kim qanoat qilsa, aziz bo'ladi" hadisi shariflarini Alisher Navoiy g'azaliyotida

Haqdin azizliq tilasang, eldin uz tama',



Kim Haqning o'zi dedi: "Azza man qana"  
tarzida bergan bo'lsa, "Hayrat ul-abror"da  
Iz (z) tilasang ayla qanoat tama',  
Masnadi izzat uzadur "man qana" – deydi.

Alisher Navoiyning "Badoe' ul- vasat"dagi qit'asi bu borada alohida badiiy qiymatga ega:

Ey Navoiy, olam ahlida tama'siz yo'q kishi,  
Har kishida bu sifat yo'qtur, anga bo'lg'ay sharaf.  
Sen agar tarki tama' qilsang, ulug' ishdur bukim,  
Olam ahli barcha bo'lg'ay bir taraf, sen bir taraf.

Sharq adabiyoti xususiyatlarini bilmagan kishi bularni bir-birini takrorlash, bir mavzu atrofida aylanish deb tushunar, balki. Bunday holatlar ko'p bo'lgan. Aslida esa, birinchi galda, Sharq allomalari shaxsiyatidagi umumiylikni o'rganish, ularni yuzaga keltirgan, jahon ma'naviy qiyofasini o'zgartirgan omillarni idrok qilish kerak.

Asarda o'qiymiz:

Kishikim, nafsu shahvat orzusi oni mast etti,  
Degil, albattakim, barcha ish onning ilkidin ketti.  
Nosir Xusrav aytganidek,  
Chun man podshohi nafsi xesh gashtam,  
Agar chand lashkar nadoram, amiram –

"Men o'z nafsimning podshohi bo'lsam, lashkarim bo'lmasa ham amirman".

"Axloqu-l-muhsiniyn" kabi mukammal axloqiy qomusda adolat haqida so'z ketmasligi adolatsizlik bo'lar edi. Shuning uchun asarda adolat borasida betakror nuqtalarni mutolaa qilamiz: Darvesh aydi: "Podshohlik shukri hama ahli olam va bani Odamg'a adlu ehson qilmoq bo'lar. Mamlakat va viloyat vase'ligining shukri raiyat mulkidin tama' qilmaslikdir. Farmonravolikning shukri farmon tutqon xaloyiqlar haqini saqlamoq erur. Baxti balandligini davlati ulug'lig'ini shukri va mazallat tufrog'i uzra yiqilganlarga rahm qilmoq bo'lar. Xazina to'la turg'onining shukri sadaqa bermoq va mustahiq'larga vazifasin yetkurmoqdur. Quadrat va quvvatning shukri ojizlar va zaiflarga alam yetkurmoqdin qo'l yig'moqdur. Sihhat va salomatlikning shukri sitam ranjiddin bemor bo'lganlarga adlu arsa birla shifo bermoqdur. Lashkar va sipoh to'loligining shukri ularning zararu osibining musulmonlardin yiroq tutmoqdur. Baland imoratlar va behishtoyin bog'larning shukri raiyatlarga maskani va manziliga lashkar, sipohlar tushub xarob qilmoqlarini va lashkarning xulosasi bukim, g'azab o'ti shu'laangiz o'lg'onda, vidodrasligi o'z rizosidin g'arazomiz bo'lganda Haq jonidin qo'ymaslik va xalq osoyishini o'z osoyishidin ilgari tutg'ay".

Shu o'rinda ta'kidlamoqchimizki, Ogahiy alohida axloqiy asar yaratmagan bo'lsa ham, tarixiy asarlaridagi ma'lum o'rinlar tanlab olinsa, alohida mukammal va mo'jaz, muhimi bugungi avlod ta'lim-tarbiyasida katta foyda keltiradigan axloq mezonlari kitobi yuzaga keladi. Misol tariqasida yuqorida fikrlarga hamohanglikni "Firdavs ul-iqbol"ning quyidagi o'rinlarida ko'ramiz:

"Podshoheki, jomi adl bila,



Xasta mazlumlarni aylar shod.

Ahli bedodning siyosat ila,

Xirmani ayshini qilur barbod.

Nukta. Hukamo debdurlarkim, saltanat nihol masobasidadur, siyosat suv manzilasida. Bas, lozim va lobudiydur, ul nihol reshasin bu suv bila toza va serob qilmoq, to bori amnu samarayi amon hosil bo'lg'ay. Qit'a:

Xush ul shahriyoriki, donish yuzidin,

Adolat mazominini aylar azbar.

Dami tig' ila saltanat bo'stonin,

Siyosat suyidin qilur tozau tar".

"Firdavsu-l-iqbol"ning mazkur o'rnida jamiyat ahlida tama hissining kuchayishi olib keladigan oqibatlar dahshati, unga qarshi kurashish keskin va muntazam bo'lishi haqida mulohazalar yuritilgan. Shuning uchun ham, mutafakkirlar nazdida mamlakat niholini tarbiyalab, uni qurib qolishdan asraydigan suv siyosat – qattiqqo'llik, muntazam e'tibordir. Bu esa zulm ahlini o'zi bilganicha ish tutishiga, o'zbiarmonlik qilib, haddidan oshishiga yo'l qo'ymaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda komil inson tushunchasi va yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash kabi dolzarb muommolar echimi o'tmish allomalari merosi asosida xam o'rganilishi va ularning tub mohiyatini anglash va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanishni yanada rivojlantirish imkonini berdi. Bu esa shaxsda axloq-odob, mardlik, shijoatkorlik, saxiylik, mehr-muruvvat, bag'rikenglik, iroda, qalb pokligi, vijdon uyg'oqligi, o'z-o'zini anglash kabi sifatlarni qaror toptirish zarurligi allomaning ma'naviy merosidan ta'lim jarayonida foydalanishni yo'lga qo'yish va rivojlantirish hamda o'qitishning zamonaviy shakl, metod va vositalarini takomillashtirish katta ahamiyat kasb etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Firdavsu-l-iqbol". Ilmiy-tanqidiy matn. Yu. Bregel nashri. – S. 723-724.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 5-jild. – Toshkent: 1990. – B.500.
3. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. 8-jild. Axloqu-l-muhsiniyn. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2019. – B. 207.
4. Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiy. Asarlar. 8-jild. Axloqu-l-muhsiniyn. – Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2019. – B. 295.
5. Komilov N. "Muhammadrizo Ogahiyning tarjimonlik mahorati". Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya ish. – Toshkent, 1970. – B.6.
6. Issues of Education in the Chronicles of the Khiva Khanate-As an Object of the History of Pedagogy. Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education. <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje>. Vol. 2 No. 1(2024).



7. Rojabovna I. A. O 'smirlik davridagi o 'quvchilar tafakkurini o 'ziga hos xususiyatlari //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2023. – T. 1. – №. 9. – С. 1242-1248.
8. Razakova R. S., Mohida Q., Shahzoda Q. Bog 'cha yoshi bolalarda nutq taraqqiyoti //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2024. – T. 2. – №. 1. – С. 73-79.
9. Saylaubekovna R. R. Fertil atamasi va fertil yoshdagi insonlarning psixologik xususiyatlari //Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan. – 2023. – T. 1. – №. 3. – С. 21-24.
10. Latipova U. TALABALARDA IJODIY FAOLLIK MOTIVATSIYASI NAMOYON BO 'LISHINING PSIXOLOGIK MEZONLARI //TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi. – 2023. – T. 1. – №. 2. – С. 193-195.
11. Юсуфбоевна ЛУ ЭНДОКРИН КАСАЛЛИКЛАРНИНГ ШАКС ПСИКИКАСИГА ТА'СИРИ //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATIONSALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 19. – С. 804-806.